



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

“BIR QIZGA MING OSHIQ” ROMANIDAGI AYOL VA ERKAKLAR NUTQINING O‘ZIGA XOSLIKLARI HAMDA UNING TARJIMADA BERILISHI

Gulnoza Nazrullayeva

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Email: nazrullayevag@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Krishan Chandar, Bir qizga ming oshiq, tarjima, gender, nutq

Annotatsiya: Badiiy asarlarda personaj nutqini o‘rganish azaldan fanning muammoli masalalaridan bo‘lib kelgan. Bu borada fanda, xususan, o‘zbek va rus tarjimashunosligida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, yirik ilmiy asarlar yaratilgan. Tarjimada yo‘l qo‘yilgan ayrim xato va noaniqliklarning yo‘qligi tarjima sifatining yuksakligidan dalolat bera olmaganidek, ularning mavjudligi ham tarjimaning sifatsiz, talabga javob bera olmaydigan ekanini bildirmaydi. Biron tarjimani tadqiq etmoqchi bo‘lgan tadqiqotchining diqqat markazida tarjimada originalga xos bo‘lgan ta‘sir kuchi, originalning g‘oyaviy va badiiy qimmatini to‘la saqlanganmi yoki yo‘qmi degan masala turishi kerak. Mazkur maqola Hind adabiyotining yorqin namoyandalardan biri Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanidagi ayol va erkaklar nutqining o‘ziga xosliklari va uning tarjimada berilishini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Inson nafaqat hududiy va ijtimoiy variantlardan, balki erkak va ayolga xos variantlardan tarkib topganligi bilan o‘ziga xos. Ba‘zi tillarda erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Gender tadqiqotlarining asosiy davri o‘tgan asrning 1980-yillari oxiri va 1990-yillarning boshlari edi. O‘sha davrda bu tadqiqotlar jadal tus oldi, natijada gender tilshunosligi tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida vujudga keldi.

CHARACTERISTICS OF WOMEN'S AND MEN'S SPEECH IN THE NOVEL "A THOUSAND LOVERS OF A GIRL" AND ITS TRANSLATION

Gulnoza Nazrullayeva

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

*Foundation PhD student,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Krishan Chandar, A Thousand Loves for a Girl, translate, gender, speech

Abstract: The study of character speech in fiction has long been a problem in science. There has been a lot of research in this area, especially in Uzbek and Russian translation, and major scientific works have been created. Just as the absence of some errors and inaccuracies in the translation does not mean that the quality of the translation is high, their presence does not mean that the translation is of poor quality and does not meet the requirements. The researcher who seeks to study a translation should focus on the power of influence inherent in the translation, and whether the original ideological and artistic value is fully preserved. This article is devoted to the study of the peculiarities of the speech of men and women in the novel "A Thousand Loves for a Girl" by Krishan Chandar, one of the brightest representatives of Indian literature, and its translation. Man is unique in that he is composed not only of territorial and social options, but also of male and female options. In some languages, the speech behavior of men and women is very different from each other. The main period of gender research was the late 80s and early 90s of the last century. At that time, these studies gained momentum, as a result of which gender linguistics emerged as an independent branch of linguistics.

ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ И МУЖСКОЙ РЕЧИ В РОМАНЕ "ТЫСЯЧА ВЛЮБЛЕННЫХ ДЕВОЧКИ" И ЕГО ПЕРЕВОД

Гульнозы Назруллаевой

докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кришан Чандар, Тысяча любви к девушке, перевод, гендер, речь

Аннотация: Изучение речи персонажей в художественной литературе давно стало проблемой в науке. В этой области проведено много исследований, особенно в узбекском и русском переводе, созданы крупные научные труды. Как отсутствие некоторых ошибок и неточностей в переводе не означает, что качество перевода высокое, так и их наличие не означает, что перевод некачественный и не соответствует требованиям. Исследователь, который стремится изучить перевод, должен ориентироваться на силу воздействия, заложенную в переводе, и на то, полностью ли сохранена первоначальная идейно-художественная ценность. Данная статья посвящена

исследованию особенностей речи мужчин и женщин в романе Кришана Чандара, одного из ярчайших представителей индийской литературы, «Тысяча любви к девушке» и его переводу. Человек уникален тем, что состоит не только из территориальных и социальных вариантов, но также из мужских и женских вариантов. В некоторых языках речевое поведение мужчин и женщин сильно отличается друг от друга. Основным периодом гендерных исследований стали конец 80-х и начало 90-х годов прошлого века. В то время эти исследования набрали обороты, в результате чего гендерная лингвистика возникла как самостоятельная отрасль языкознания.

KIRISH

Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma'noda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Gender (inglizcha gender – “zot”dan) jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy konstruktsiya sifatida belgilaydi.

Gender lotincha “genus” so'zidan olingan bo'lib “jins, rod” ma'nolarini beradi. “Gender” tushunchasi feminist nazariyasining rivojlanishi natijasida fanga kirib kelgan. G'arb olimi Djon Mani 1955-yilda birinchilardan genderga oid tadqiqotni amalga oshiradi. Ammo 1970-yildan boshlab gender tushunchasi ommaga kirib keladi. 1975-yil Gendertilshunoslik sohasida ilk tadqiqotni amerikalik professor Robin Lakkof olib bordi. U o'zining “Til va ayolning o'rnini” (“Language and Womans Place”, 1975) kitobida ayol va erkaklarning muloqot uslublarini, nutq farqlarini tadqiq etadi. R.Lakoff, nazariyasiga ko'ra ayolning og'zaki nutqi erkak bilan solishtirganda farq qiladi. Ayol nutqida noaniqlikning mavjudligi, suhbatdoshiga nisbatan tajovuzkorlikdan ko'ra insoniylik jihatining ko'pligi ko'rinadi. Ayol erkaklardan farqli ravishda suhbatdoshning fikrini tinglaydi, suhbat paytida hukmronlik qilishga intilmaydi. Bu holatning aksi esa erkaklar nutqida ko'proq namoyon bo'ladi. Inson nafaqat hududiy va ijtimoiy variantlardan, balki erkak va ayolga xos variantlardan tarkib topganligi bilan o'ziga xos. Ba'zi tillarda erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Misol uchun, yapon tilida, koreys tilida .

TADQIQOTNING USULLARI

Hind adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanidagi ayol va erkaklar nutqining o'ziga xosliklari va uning tarjimada berilishini o'rganish. Inson nafaqat hududiy va ijtimoiy variantlardan, balki erkak va ayolga xos variantlardan tarkib topganligi bilan o'ziga xos.

Metodlar: Tadqiqotni amalga oshirishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chog'ishtirish metodlaridan foydalanildi. Hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan "Bir qizga ming oshiq" romanidagi ayol va erkaklar nutqidagi o'ziga xosliklari o'rganildi.

NATIJALAR

Inson tili nafaqat hududiy va ijtimoiy variantlardan, balki erkak va ayolga xos variantlardan tarkib topganligi bilan ham o'ziga xosdir. Erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Ayollar o'ta betakalluf, erkaklar esa o'ta takallufli shakllarni qo'llashdan qochishadi. Ayollar buyruq maylining qo'pol shakllaridan deyarli foydalanishmaydi. O'ta takallufli shakllar ayollar tomonidan erkin, erkaklar tomonidan esa faqat xizmat doirasidagina qo'llaniladi. Ayrim shaxslar hayotda o'zlarining so'zlashish uslublari bilan ajralib turganlaridek, badiiy asar personajlarining ko'pchiligi so'zlarni sekin, chertib-chertib, salmoq bilan talaffuz etsalar, ayrimlari duduqlanib, soqovlanib so'zlashadilar, boshqalari adabiy til me'yorini buzib, fikrlarini o'z lahjalarida bayon etadilar. O'zga tilda so'zlashgan ajnabiy esa nafaqat grammatik qurilish va fonetik talaffuz jihatlaridan, balki leksik-frazeologik birliklarni tanlab ishlatish bobida ham son-sanoqsiz nuqsonlarga yo'l qo'yadi.

Tarjimashunos Santosh Aleks quyidagicha fikr bildiradi: "Tarjima ishi qiyin, ammo imkonsiz emas. Ma'lumki, tarjima asliyat bilan bir xil ta'sirga ega bo'lsa, tarjima asliyatga yaqinroq ko'rinadi, u ko'zda tutilgan tildagi tarjima emas, asl nusxadek ko'rinadi".

Ayollarning fe'l-atvorlarida ijobiy xislatlar bilan birgalikdas salbiy xislatlari ham nutqlarida namoyon bo'lishiga duch kelamiz. Ayollar nutqlarining yana bir jihati shundaki, qarg'ish so'zlar ayollar nutqida keng qo'llanadi. Afsuski, bu hodisa nutq madaniyligiga katta zarar yetkazadi. Ayollar nutq madaniyligiga putur yetkazadigan muhim omillardan yana biri maydagaplik, chaqimchilik, g'iybat, gap tashish va mubolag'a, yolg'on unsurlarining nutqda keng foydalanilishidir. O'qimishli, mutolaa zavqini his etadigan ayollar nutqi yuqoridagi salbiy hislatlardan xoliroq bo'lishi kuzatiladi. O'zbek ayollari nutqida erkalash sifatleri ham mislsiz o'rin tutadi. Olimlarning tadqiqotiga ko'ra, erkalashlar og'riq qoldiruvchi vosita hisoblanar ekan. Bunday paytda qon aylanish yaxshilanib, qondagi kislorod miqdori 10–15% ga oshar, qon bosimi mo'tadillashib, nafas olish yengillashar ekan. Ayollar farzandlariga murojaat qilayotgan paytlarida bolajonim, boquvchim, ertam egasi, ko'zlarim nuri, borlig'im deb murojaat qilishadi. Ushbu erkalashlarning zamirida ertangi kunga da'vat g'oyasi namoyon bo'ladi. Bunday murojaatlarni eshitib voyaga yetgan farzandning ruhiyati ham mukammal bo'ladi. Ayollar nutqi insonni shaxs sifatida tarbiyalashi va uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishi bilan ham lingvokulturologik sohaning o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb mavzularidandir.

Hozirgi kundagi gendermuammosiga oid tadqiqotlarni V.A.Kirilina ikki yo‘nalishga ajratadi:

1.Gumanitar fanlar doirasida gender muammosi. Bunda sotsiologiya, psixologiyada o‘rganilgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun asos bo‘ladi. Genderning kategoriya sifatidagi va antologik maqomi o‘rganiladi.

a) gender tahlilining umumilmiy prinsiplari.

– gender – madaniyat va jamiyat taraqqiyotining hosilasi bo‘lib qiyosiy xarakterga ega; konvensional mohiyat sifatida tan olinadi.

– gender boshqa sotsiomadaniy konstruktlar kabi o‘zgaruvchadir.

– gender umumilmiy kategoriyadir; har bir fan doirasida genderning o‘ziga xosligini va qaysi metodlar yordamida o‘rganilishini e‘tiborga olish kerak.

b) gender tahlilining lingvistik prinsiplari.

Hindiy tilini boshqa ba’zi tillardan farqlanib turadigan asosiy jihatlaridan biri bu – unda jins kategoriyasining mavjudligidir. Hindiy tilida jins kategoriyasiga rus tili singari juda qattiq rioya qilinadi. Barcha qoidalar, gap tuzilishi, so‘zlar ham aynan muzakkar va muannas asosida tuziladi. Muzakkar – o‘g‘il bola, erkak kishilar uchun, muannas esa qiz bola, ayol kishilar uchun. Tilshunoslikning barcha sathi singari, tabiiyki, murojaatda, diskurs – og‘zaki nutqda ham jins kategoriyasiga amal qilingan holda so‘zlar ishlatiladi. Qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun esa alohida so‘z va qo‘shimchalar qo‘llaniladi. Quyida keltirilgan misollarimizda ham buni ko‘rishimiz mumkin: “कोई काम जानती हो?” “बास्केट बुन सकती हूँ, और चटाइयाँ.....और.....” वह रुक गई। “और?” खूबचन्द ने पूछा। “और नटों के सब करतब जानती हूँ; एक तने हुए रस्से पर चल सकती हूँ, जलते हुए गोले में से गुज़र सकती हूँ; एक साँस में दस कलाबाजियाँ लगा सकती हूँ।” किधर गई वह तस्वीर? वह बाँसों के सरसाते हुए झुण्ड, हवा रोमान्स की महक से भरी हुई, और नदी किनारे गर्दन झुकाए हुए उदास सुन्दरी, किसी सोच में डूबी हुई । Tarjimasi: – Qo‘lingda biron hunar-punaring bormi? Xalta to‘qiy olaman, bo‘yra...yana...–qiz to‘xtab qoldi. Xo‘sh, tag‘in nima? – so‘radi Xubchand. Yana ko‘zboylog‘ichlarning hamma o‘yinlarini bilaman. Tortilgan dorda yura olaman, yonib turgan halqa orasidan o‘ta olaman, bir nafasda o‘n marta o‘mbaloq osha olaman.

- Qayoqqa gumdon bo‘ldi haligi suvrat? Shovullagan shakarqamish poyalari, muattar hidga to‘la havo, daryo bo‘yida boshini ma‘yus egib o‘tirgan jonon . Ushbu parchalarda muallif Xubchand va Lachiyning suhbatini tasvirlagan. Parchadagi “कोई काम जानती हो?” gapini tarjimon “Qo‘lingda biron hunar-punaring bormi?” deb mohirona o‘girilgan. Chunki mutarjim o‘zbek xalqiga tegishli birikmani qo‘shmaganda xunuk tarjima bo‘lib qolgan bo‘lar edi. Ya’ni, so‘zma-so‘z tarjima qilganda tarjimon o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni o‘zbek kitobxoniga

yetkazib bera olmas edi. Keyingi jumlada “बास्केट बुन सकती हूँ” gapni tarjimon “Savat to‘qiy olaman” deya o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Bu gap ayol nutqiga tegishli. “बास्केट ” “savat” so‘zini mutarjim xalta deb bergan. Savatni to‘qisa bo‘ladi ammo xaltani tikish kerak-ku. Bu yerda xalta emas, savat deb tarjima qilish kerak edi. Yana bir jumladagi “और?” खूबचन्द ने पूछा। jumlaning mutarjim “Xo‘sh, tag‘in nima? – so‘radi Xubchand” deb tarjima qiladi. Bu yerda tarjimon gapni yanayam aniqlashtirish uchun “tag‘in nima?” so‘zlarini o‘zidan qo‘shadi. Keyingi gapni “और नटों के सब करतब जानती हूँ” tarjimon quyidagicha tarjima qilgan “Yana ko‘zboylog‘ichlarning hamma o‘yinlarini bilaman”. Asliyatdagi “नटों के सब करतब” gapini tarjimon “ko‘zboylog‘ichlarning hamma o‘yinlarini” deb beradi. Ammo bu yerda muallif ko‘zboylog‘ichlarning o‘yinlarini emas, ularning sirlarini, ya‘ni

Keyingi parchada Jayna Boiyning nutqi berilgan: जैनाबाई ने समझाया – “पचास हज़ार की रकम कोई कम नहीं होती है, मूर्ख मत बनो, कबूल कर लो। आपनी ज़िन्दगी बना लो।” Tarjimasida Jayna Boiy bosiqlik bilan dedi: Ellik ming rupiya kichkina pul emas, tentaklik qilishni qo‘y, rozi bo‘l. Hayotingni tiklab ol. Ushbu parchada tarjimon personajning ismini noto‘g‘ri bergan. Chunki yozuvchi “Jaynabayi” deb personajni ataydi. Ammo mutarjim muallif bergan ismni ikkiga bo‘lib o‘giradi. Barchaga ma‘lumki, ismni tarjima qilib bo‘lmaydi. Keyingi “पचास हज़ार की रकम कोई कम नहीं होती है” gapini “Ellik ming rupiya kichkina pul emas” deb tarjimon o‘zbek tiliga o‘giradi. Mutarjim so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, o‘zbek kitobxoniga tushunarli qilib o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Asliyatda ellik rupiya pulni miqdori bilan sifatlasa, tarjimada esa uni kichkina so‘zi bilan yetkazib beryapti.

Navbatdagi parcha tarjimasida umumiy mazmun bera olingan deyish mumkin. Biroq, sinchiklab qaralsa, tarjima nuqsonlardan xoli emas: लाची ने पूछा – “मगर तुम तो पढ़ी-लिखी हो। कभी भी नौकरी करके दो-तीन सौ रुपया बाइज़त तरीके से कमा सकती हो।” Tarjimasida Lachiy dedi: – Axir o‘zing oliy ma‘lumotli ekansan. Biron joyda ishlab, halol yo‘l bilan oyiga ikki-uch yuz rupiya bemalol topsang bo‘ladi-ku? Jumladan, parchaning boshida keltirilgan “मगर तुम तो पढ़ी-लिखी हो।” gapni “Axir o‘zing oliy ma‘lumotli ekansan” deya tarjima qiladi. Bu yerdagi पढ़ी-लिखी so‘zi savodli degan ma‘noni bildiradi. Savodli kishi o‘qish-yozishni biladigan, grammatika qoidalariga muvofiq to‘g‘ri gapiradigan va yozadigan, o‘z sohasini yaxshi biladigan insonlarga nisbatan aytiladi. Ammo, mutarjim पढ़ी-लिखी so‘zini oliy ma‘lumotli deya tarjima qiladi. Oliy ma‘lumotli kishi institut, universitetni bitirgan insonlarga aytiladi. Institutda o‘qimagan inson ham o‘qish, yozishni biladi. Bu yerda tarjimon oliy ma‘lumotli emas, o‘qimishli deya berishi kerak edi.

Bu gapda taksichi Hamidning jahli qilib aytgan qarg'ish so'zlarini ko'rishimiz mumkin: “धत् तेरे की! आज अपनी किस्मत ही खराब है!” हमीदा टैक्सीवाले ने रेल की पटरी पर पान की पीक ज़ोर से थूकते हुए कहा। Tarjimasi: –Padariga la'nat! Bugun o'zi chap yonim bilan turgan ekanman, – dedi Hamid taksichi temiryo'l iziga og'zidagi ponni qattiq tuflab tashlarkan). Mazkur jumlada “धत् तेरे की!” gapi o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan “Padariga la'nat!”. Muallif taksichi Hamidning ishi yurishmayotganini va shunga jahli chiqayotganini ko'rsatib bergan. Bu yerda Hamid jahli bilan “धत् तेरे की!” ya'ni “Jin ursin!” degan. Mutarjim esa “Padariga la'nat!” deb kuchaytirib beradi. Personaj jahli chiqqanidan shu so'zni ishlatgan. Tarjimon so'kish so'zini qarg'ish so'ziga almashtiradi. Bu yerda Hamid so'kadi. Keyingi “हमीदा टैक्सीवाले ने रेल की पटरी पर पान की पीक ज़ोर से थूकते हुए कहा।” gapni tarjimon quyidagicha beradi - “Hamid taksichi temir yo'l iziga og'zidagi ponni qattiq tuflab tashlarkan”. Bu yerda “पान” so'zi ishlatilgan. Tarjimon esa ushbu so'zni “Pon” deya beradi. Hind xalqiga tegishli realiyani o'zgartirish kerak.

Mazkur jumlada ayol va erkaklar nutqi berilgan, ya'ni Gul va Lachining suhbatini aks etgan. Gulning so'zlarida erkaklarga xos lo'ndalik, aniqlik kuzatiladi: गुल ने आह भर कर कहा, "अब तुम क्या करोगी?" लाची सीधे-सपाट स्वर में बोली, "हम हार गए-वादा-वादा है" Tarjimasi: Gul oh tortib, dedi: Endi sen nima qilasan?La'chiy soddadillarcha javob berdi: Biz yengildik – o'sha va'da, o'sha va'da! Lachi personajimiz o'z suhbatida ayollarga xos hissiyotga berilish, tushkunlikka tushib qolingani ko'rsatib berilgan. Bu yerda, o'zbek o'quvchisiga noaniqlik beruvchi jihat bor. Gul ismi o'zbeklarda ayollarga nisbatan ishlatiladi. Hind yozuvchisi bu ismni qo'llashidan, bu ism hind millatida erkaklarga ham qo'yilar ekan.

Ayollar o'zi qiynalsa-da, yaxshi ko'rgan insoniga yordam qo'lini cho'zmoqchi bo'ladi. Bu yerda Lachi personaji ham mana shu holatga tushgan: लाची ने अपनी जेब टटोलकर उसमें से चार आने निकाले और उन्हें गुल को देने का प्रयत्न करते हुए बोली, “बस का किराया आने-जाने का तो ले जाओ”। “नहीं लाची!” गुल ने बड़ी कोमलता से कहा, “तुम ये चार आने भी दुमारू को दे दो, कर्जे में से चार आने और कम हो जाएँगे। यह तो ज़रा सोचो”। Tarjimasi: La'chiy cho'ntagini kovlab, undan to'rt anna chiqardi va Gulga tiqishtirib, dedi: Yo'l kira haqi, borish-kelishga, ol. Yo'q, La'chiy, – dedi Gul g'oyat muloyim ohangda. – Bu to'rt annani sen Dumaruga ber, harna qarzdand to'rt anna qutulganing qoladi. Sen bu yog'ini o'yla. Qarzi bor insonga bir anna ham katta pul. Lachi qarzi bo'la turib, Gulga yo'l kira uchun to'rt anna beradi. Ammo, Gul pullarni olmaydi, ya'ni olishga vijdoni yo'l qo'ymaydi. Bu erkaklarga xos xususiyat. Tarjimon ushbu jumlaning o'zbek tiliga o'girayotganda ayol va erkaklar nutqini to'g'ri bera olgan.

Tarjimon bu jumlada o‘zbek tilining so‘z boyligidan mohirona foydalana olgan: लाची ज़ोर-ज़ोर से हँसने लगी। उसे गुल की यह शरारत बहुत पसन्द आई। अकस्मात् उसे गुल अपना ही साथी-अपने ही समान लगा। वह अपनी धुन में उसके निकट चली गई। हँसते-हँसते अकस्मात् रुकी, फिर बोली – “अपना हाथ दिखाओ।” गुल ने अपना हाथ उसके हाथ में दे दिया। Tarjimasi: La’chiy xandon tashlab kula boshladi. Gulning bu ayyorligi unga juda nash’a qildi. Birdaniga Gul unga o‘z do‘stiday, o‘ziga o‘xshaganday ko‘rinib ketdi. O‘z ko‘nglida unga juda ham yaqin bo‘lib qolgandi. Qiz birdan kulgidan to‘xtab, dedi: Qo‘lingni ko‘rsat-chi. Gul qo‘lini qizning qo‘liga qo‘ydi. Misol boshidagi “लाची ज़ोर-ज़ोर से हँसने लगी।” jumlasini mutarjim tomonidan “La’chiy xandon tashlab kula boshladi.” shaklida o‘zbek tiliga o‘girgan. Bu yerda tarjimon Lachi ayol personajini bir sifat bilan bergan. Aslyatda esa ayollarga ham erkaklarga ham aytiladigan so‘z qo‘llanilgan. Tarjimon esa ayollarga tegishli “xandon” so‘zini ishlatib, personajning ayolligiga urg‘u berib ketgan.

Bu misolda ham yuqorida berilgan jumladagi vaziyat takrorlangan: हवलदार ज़ोर से हँसा - “अगर ऐसे भिखारियों की रिपोर्ट दर्ज करते फिरें, तो शहर की पुलिस कुछ और काम न कर सके!” वह हँसता हुआ चला गया। Tarjimasi: Havaldor qah-qah urib kuldi: Agar bunaqa tilanchilarning ko‘rsatmalarini yozadigan bo‘lsam, shahar politsiyasi boshqa ishlarni yig‘ishtirib qo‘yaversa ham bo‘ladi, – kulganicha u ketdi. Ammo ayollar nutqida emas, erkaklar nutqida. Havaldor “qah-qah urib kuldi” deya tarjima qilingan. Aslyatda esa ayollarga ham erkaklarga ham ishlatadigan so‘z ishlatilgan.

Ayol nutqiga e’tibor berilsa, yozuvchi Lachini qiynalغانidan hissiyotga berilib gapirayotganini ta’kidlagan: लाची आहिस्ता से बोली – “मुझे जेलखाने के बाहर छोड़ दो, मैं खुद जहाँ जाना होगा चली जाऊँगी।” खूबचन्द ने जल्दी से घण्टी बजाई। एक चपरासी अन्दर आया। खूबचन्द ने कहा – “लाची को कालीचरन साहब के दफ्तर में ले जाओ – वह तमाम ज़रूरी कागज़ों को देकर इसको रिहा कर देंगे!” Tarjimasi: La’chiy past ovozda dedi: Meni qamoqxonaga tashqarisiga chiqarib qo‘ying, boshim oqqan yoqqa ketaveraman. Xubchand darrovoq qo‘ng‘iroq chaldi. Bir xizmatkor ichkari kirdi. Xubchand dedi: La’chiyning Kalicharanning idorasiga olib bor, u barcha zaruriy qog‘ozlarni berib, uni ozod qilib yuboradi. Tarjimada ham buni yaqqol ko‘rish mumkin. Mutarjim “boshim og‘gan yoqqa ketaman” iborasi bilan hissiyotni ifodalay olgan. Aslyatda esa oddiy “मैं खुद जहाँ जाना होगा चली जाऊँगी।” gapi bilan berilgan.

Ushbu gap adekvat tarjima qilingan: “आओ मेरे सरदार! मुझे उठाकर ले जाओ!” Tarjimasi: Kela qol, sardorjiy! Meni ko‘tarib olib ket! Bu yerda murojaat shakli “सरदार” ishlatilgan. Tarjimada murojaat birligi o‘z aksini topgan.

Tarjimon asliyatlardagi ushbu murojaatni tarjimaga mohirona ko'chira olgan: “मेरे सरदार! मुझे अपने तम्बू में ले चलो।” Tarjimasi: Jonginam! Meni chodiringga olib keta qol! – dedi. Hindcha-ruscha lug'atda “सरदार” so'zi boshliq, sardor ma'nolarida kelgan. Gapda tarjimon personaj holatidan kelib chiqib tarjima qilgan.

Bu gapda “जॉनी” murojaat so'zini ko'rishimiz mumkin: बोला –“जॉनी! बस तू इधर मेरी दुकान पर आके कभी-कभार दो मिनट के लिए खड़ी हो जाया कर, अपने तो पान के पैसे वसूल हो जाते हैं।” Tarjimasi: Jonon qiz! Sen do'konimga kelib, har zamonda ikki daqiqadan tursang bo'lgani, ponning pulini bemalol chiqarib olasan. Tarjimon personaj ayol kishi ekanligini aniqlab ketgan. Asliyatda esa personaj ayol kishiligi ochiqlangan. Hindiy tilida asarda keltirilgan erkaklarga nisbatan ishlatilgan murojaat so'zlar: बचपन ही से उसे चित्रकला का बड़ा चाव था: मगर उसके पिता रायबहादुर श्री गंगासहाय डिप्टी इन्सपेक्टर जनरल जेलखाना थे और यह विभाग एक तरह से उनका अपना ही था और ज़माना अंग्रेज़ों का था। Tarjimasi: Bolaligida rassomlikka qattiq qiziqardi, biroq otasi roybahodur Shri bo'lgani bilan zamona tizgini inglizlar qo'lida edi. Ray – bu hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan tarixiy unvon. Hindistonda ko'plab hukmdorlar va shahzodalar tomonidan ishlatilgan. Telugu tilidagi variant Rao. Mo'g'ullar hukmronligi davrida hindu yoki sikhlar boshlig'iga unvon berish paytida shaxs nomiga Raja yoki Rai so'zlari qo'shilgan. Mo'g'ullarga unvon berish Dehli sultonlaridan meros bo'lib qolgan. Rai erkaklarga, ayollar uchun Rani murojaati qo'llaniladi. Ray Sahib va Rai Bahadur rahbarlik xizmati uchun berilgan sharaf unvonlari bo'lgan. Ularga ulkan kuch beriladi hamda ularning feodal mulklari mahalliy hokimlarga teng bo'lgan. Yuqorida berilgan Shri murojaat so'zi ham hurmat ma'nosida ishlatiladi. Bu so'z insonga bo'lgan hurmatni yanada kuchli ifodalaydi. Ushbu so'z ayollarga nisbatan ham erkaklarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Jumlada keltirilgan भाई murojaat so'zi konkret murojaat shakli hisoblanadi: “नहीं भाई!” – लाची ने बड़ी सख्ती से कहा - “इस मनीआर्डर को वापस कर दो, फौरन वापस कर दो!” – यह कहकर लाची ने बड़ी तेज़ी से दरवाज़ा अन्दर से बन्द कर लिया। Tarjimasi: Yo'q, og'a, – dedi Laychiy g'oyat jiddiy ohangda, – bu pulni qaytarib yuboring, darrov qaytarib yuboring. – Shunday deb Laychiy shiddat bilan eshikni ichkarisidan yopib oldi. Uning so'zma-so'z tarjimasi aka. Ushbu murojaat so'zi qarindosh-urug'chilikda ishlatiladi, bu so'z orqali notanish odamga ham murojaat qilinadi.

“ऐनकवाले बाबू एक आना, छातेवाली बीबी एक आना, दाढ़ी वाले सरदारजी एक आना....” जैसे वह भीख न माँग रही हो, क्यूँ में खड़े हुए लोगों को नीलाम कर रही हो। ‘सारा माल लुटा दिया है एक आने में!’ Tarjimasi: Hoy, ko'zoynak taqqan janob, bir anna xayr qiling! Hoy, soyabon tutgan xonim, bir anna xayr qiling! Hoy, soqolli sardorjii, bir anna xayr qiling. Janob murojaat shakli

suhbatdoshning ismini yoki familiyasini talab qilmaydi. Keksa odamlar, erkaklarga teng yoki oqsoqollarga murojaat qilinadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rishimiz mumkinki, Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” romanida ko‘rib chiqilgan misollarda murojaat so‘zlarining turlari o‘rganib chiqildi. Ularga ko‘ra, ijtimoiy mavqeni anglatuvchi, erkalashni, kesatqini, hurmatni anglatuvchi hamda unvonni anglatuvchi o‘xshatishlar topildi va jins bo‘yicha ishlatilishi ajratib olindi: “ऐनकवाले बाबू एक आत्रा, छातेवाली बीबी एक आत्रा दाढ़ी वाले सरदारजी एक आत्रा...” जैसे वह भीख न भाँग रही हो, क्यूं में खड़े हुए लोगों को नीलाम कर रही हो। Tarjimasi: Hoy, ko‘zoynak taqqan janob, bir anna xayr qiling! Hoy, soyabon tutgan xonim, bir anna xayr qiling! Hoy, soqolli sardorjiy, bir anna xayr qiling. Xonim – erkakning ayolga murojaatining muloyim shakli bo‘lib, ijtimoiy mavqeni anglatuvchi murojaat so‘z hisoblanadi.

La‘chiy vokzal boshlig‘iga qilgan murojaatida ziyolilar qatlamidagi erkaklar uchun ishlatiladigan arab, fors tilidan o‘zlashgan murojaat so‘zini ko‘rishimiz mumkin: लाची ने बड़े संकोच से कहा – “स्टेशन मास्टर साहब! अब नहीं चुराऊँगी, अब...बस अब माफ करो!” “लेकिन ऐसा काम करती क्यों हो?” “आप तो जानते हैं स्टेशन मास्टर साहब! ...सारा इलाका जानता है।” Tarjimasi: La‘chiy yurak hovuchlab, sarosimlanib javob berdi: – Boshliq janoblari! Endi o‘g‘irlamayman, endi... shu galcha kechiring! – Nega bunday qilding, axir, nega? – O‘zingiz bilasiz-ku, boshliq janoblari!.. Butun tuman biladi. Bu murojaat so‘zi “universal” murojaat so‘zlari qatoriga kiritilishi mumkin. Asliyatda vokzal boshlig‘i deb berilgan. Tarjimon esa boshliq janoblari deb tarjima qilgan. La‘chiy o‘g‘rilik qilib noto‘g‘ri ish qilganligi uchun vokzal boshlig‘ini yupatish uchun ko‘ngilni yumshatish sifatida tarjimon boshliq janoblari deb tarjima qilgan desak bo‘ladi.

“Babu” so‘zi Hindiston yarim orolida erkaklarga nisbatan hurmat belgisi sifatida ishlatiladi: “वसन्त तो दो महीने में भी न आएगा।” “नहीं बाबू, अब की वसन्त जल्दी आएगा।” Tarjimasi: - Bahor hali ikki oysiz kelmaydi. - Yo‘q, taqsir, bu gal bahor tez keladi. Ayrim madaniyatlarda babu murojaati yaqin insoniga muloyim munosabatda bo‘lishni bildiradi. Hurmat qo‘shimchasi “ji” qo‘shilib “Babuji” hosil qilinadi. Bu so‘z Hindistonning shimoliy va sharqiy qismlarida otasini hurmat qilganda ishlatiladi. Shuningdek, babu odamni ismini chaqirganda hurmat ko‘rsatish uchun uning ismiga qo‘shimchalar sifatida ishlatiladi. Ya‘ni ey murojaat shakli abstract hamda babu murojaati konkret hamda u erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

“अभी नहीं,” दुमारू हँसकर बोला, “मेरे प्यारे! पहले अपना काम करो फिर पच्चीस रुपये ले जाओ। यदि मुझ पर विश्वास न हो तो कहो मामन के पास रख दूँ।” Tarjimasi: – Hozir emas, – Dumaru kulib dedi. – Azizim! Avval ishni qoyil qil-da, keyin yigirma besh rupiyani jaraqlatib sanab ol. Bordi-yu, menga ishonmasang, ruxsating bilan Ma‘manga berib qo‘yaman. Erkak yoki ayolga

murojaat qilishning shaxssiz shaklida “मेरे प्यारे” ishlatiladi. O‘zbek tiliga azizim deb tarjima qilinadi. “Azizim” so‘zi mehr bilan murojaat qilganda ishlatiladi. Tarjimon mohirona tarjima qila olgan desak bo‘ladi.

Ushbu parchada ona o‘z farzandini hadeb uxlayverishidan jahli chiqib, uni koyiydi hamda “कम्बख्त” qarg‘ishini ishlatadi: सुबह उसे माँ ने कच्ची नींद से जगा दिया, वर्ना वह जाने कब तक सोती रहती। “उठ कम्बख्त, लकड़ियाँ चुन के ला। आज खाना नहीं पकाएगी क्या? सूरज सिर पर आ गया है!” Tarjimasi: Ertalab onasi uni uyg‘otib, uyqusining beliga tepdi, bo‘lmasa yana qachongacha yotishini xudo bilardi. – Tur, juvonmarg, o‘tin terib kel. Bugun ovqat bo‘lmaydimi yo? Kun tepaga keldi. Bu so‘z aslida “jin ursin” ma‘nosini beradi. Tarjimon esa, “juvonmarg” qarg‘ishini ishlatadi. “Juvonmarg” qarg‘ishi barchaga ayonki, erta, vaqtli o‘tib ketgan insonga nisbatan ishlatiladi. Romandan bizga yaxshi ma‘lumki, aslida ona o‘z farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, lekin shu vaziyatda u farzandini qarg‘ab yuboradi.

Mazkur misolda, La‘chiyning Xubchandga murojaati aks etgan: लाची ने हँसकर कहा – “अरे बाबू! तुमने तो अभी तस्वीर शुरू भी नहीं की, यह कागज़ तो अभी कोरा ही है।” Tarjimasi: La‘chiy kulib, dedi: Ey bobu! Siz suvratni hali boshlamabsiz ham-ku, qog‘oz oppoqligicha turibdi. Asliyatda Xubchand ismining o‘rniga “Are” murojaat so‘zi ishlatilgan. “Are” so‘zi hindiy tilida “hoy”, “ey” so‘zlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur jumlada esa tarjimon mohirona tarjima qilgan. Gapning tarkibiga kirgan murojaatlarda gapning boshida va oxirida kelgan murojaatlar, gapning o‘rtasida joylashgan murojaatlarga qaraganda kuchliroq ajratiladi.

Hindiy tilida murojaat sifatida o‘zlik otlari, shaxs nomlari, qarindoshlik nomlari, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, kasb, hunar, lavozim, mashg‘ulot, unvonlarni bildiruvchi so‘zlar, kishining yoshi, insonlarning munosabatlarini ko‘rsatuvchi otlar ham ishlatiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Z.M.Dimshits murojaat shakllariga oid so‘zlarga bevosita undov so‘zlarni ham kiritadi. Bunday fikrlar hind tilshunos olimi K.Guruning ilmiy-nazariy qarashlarida ham kuzatiladi. Ularning fikrlariga ko‘ra, hindiy tilidagi murojaat so‘zlariga mansub bo‘lgan undov so‘zlar turli xil his-hayajon va ichki kechirmalarni ifoda etadi, lekin ularning nomini atamaydigan maxsus leksik-grammatik so‘zlar qatoridir. Shuning uchun undov so‘zlar mustaqil so‘z turkumlariga ham, yordamchi so‘z turkumlariga ham kirmaydi.

Yuqorida o‘rganilgan ilmiy-nazariy fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, rus hindshunos olimlaridan, ayniqsa, Z.M.Dimshits hindiy tilidagi murojaat shakllarini o‘ziga xos ifodalanish shakllarini atroflicha, batafsil ochib bergan. U murojaat shakllariga oid so‘zlar qatorida undov so‘zlar ham bevosita qo‘llanilishiga alohida urg‘u beradi va ularni gapdagi o‘rinlariga qarab ham turli xil guruhlariga taqsimlaydi. Hind tilshunos olimi K.Guru esa hindiy tilidagi murojaat shakllariga oid so‘zlarga alohida to‘xtalmagan holda, ular o‘rnida faqatgina

undov soʻzlari keng ifodalanishiga ishora qiladi. Uning bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarida biroz chalkashliklar boʻlganligi bois, biz mazkur boʻlimning yoritilishi jarayonida, asosan, rus tilshunos olimi Z.M.Dimshisning ilmiy-nazariy fikrlarini oʻrinli deb hisoblashni lozim deb topdik. Tilning asosiy vazifasi muloqot ekanligi ayon. Muloqot jarayoni oʻz-oʻzidan murojaatsiz boʻlmasligi aniq. Shuning uchun tilshunoslikda muloqot jarayonida murojaatning psixologik aspektlari hamda murojaat ifodalash vositalari har doim tadqiq etib kelingan .

XULOSA

Asar muallif tomonidan yozilar ekan, undagi qahramonlarning xulq-atvori bilan birga, jinsiga qarab ham ularning nutqiga mos soʻzlarni tanlab shakllantiradi. Maʼlumki, ayollarning oʻziga xos nutq uslubi va shuningdek, erkaklarning ham oʻziga xos nutq uslubi bor. Erkak kishi koʻproq ishlatadigan soʻzlar mavjud, ayol kishi koʻproq ishlatadigan soʻzlar mavjud va yoki faqatgina bir jins ishlatishi mumkin boʻlgan soʻzlar mavjud. Bunday soʻzlarni mahorat bilan tanlab, personaj nutqiga joylashtirish muallif mahoratiga bogʻliqdir. Shu bilan birga, faqatgina muallif emas, tarjima qilinsa, tarjimon uchun ham tegishlidir. Chunki unday soʻzlar jinsdan tashqari aynan biror millatning oʻziga ham xos boʻlishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М.: Энциклопедия, 1972.
2. Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2021. – 235 б.;
3. Кришан Ч. Бир қизга минг ошиқ. Роман (ҳиндий тилидан Амир Файзуллаев таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 2011. - № 4. – Б. 22.
4. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари семантикаси ва грамматикаси. – Т., 2000.
5. Usmanova Sh. Oʻrganilayotgan mamlakatda til vaziyati. – Т., 2015. – В. 68.
6. Ходжаева Н. Бадий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.;
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Энциклопедия, 1981. - № 3.
8. संतोष अलेक्स। अनुवाद प्रक्रिया एवं व्यवहारिकता। Authors press, New Delhi, India – 2016. – P. 24.
9. कृष्ण चन्दर। एक लड़की हज़ार दीवाने। नई दिल्ली - 2013।- प।19।